

Abdiyeva Nilufar Ozod qizi
Mengqobilova Ra'no Sirojiddinovna
G'ofurova Kamola G'ulom qizi
A.Qodiriy nomidagi JDPU
Fizika va astronomiya yo'nalishining
2-kurs talabalari

Annotatsiya: *Ushbu maqola o'zbekistonda yashab ijod qilgan, o'tkir qalam sohibasi Zulfiya Isroilova xotirasi va uni kelajak avlodlarga qoldirgan me'rosiga bag'ishlab yozilgan.*

Kalit so'zlar: *poeziya, nazmgo'ylik, olovli ishq, jasoratli, fidoiy, ona armonlari, ayol qalbi.*

Zulfiyaxonim Isroilova 1915-yili Toshkent shahrining qadimiy Degrez mahallasida tavallud topgan. O'zbek sovet poeziyasining Zulfiya degan nomning chaqnab paydo bo'lishi – tong yulduzining tug'ilishiga teng voqea bo'lgan edi, o'sha tongning o'ziday rost va yorqin bir haqiqat bu o'zi! Chigilliklar, tortishuvlar, izlanishlar to'liq bir pallada yangi va umidbaxsh bir sado, yoqimli bir soz jaranglab ketgan edi-da. O'sha kezda ayol zotidan qo'lga qalam olganlar umumiyroq, bir-biridan farqsizroq, ibtidoiyroq, jo'nroq, nazmgo'ylikdan nari o'tolmagan mashqlar, o'xshatmalar edi. Davr va poeziya ayol erki, ayol qalbi, iztirobga limmo – lim ona timsoli, ona armonlari, ona baxtini, ona dilini kuylashga qodir bir onaboshiga muxtoj va intizor edi. Zulfiyaxonim ana shu bo'shliqni to'ldirib qo'lga soz olgan, o'sha chanqoqlikni qondirgan, birinchi ayol, birinchi kuychidir. U birinchi mashqlaridanoq tonnga maxliyo. Buyuk va pok tong go'zalliklariga oshiq, tongni qadrlashga fidoiy, jasoratli va urinchoq kuychi bo'ldi. Zulfiya sudralib yurgani yo'q, har yangi she'rda ilgarilayotgani aniq, parvozga uzoq yillar tayyorgarlik ko'rgani kunday ravshan, satrma-satr, bandma-band, she'rma-she'r teranlashib, yarqirab, burroliq va jarang kasb etgan qalam sohibasidir. Bu fazilat va sajiya xamirdan qil sug'urgandek oson va o'z-o'zidan qo'lga kirgan emas, albatta. Uzluksiz mehnat, urunish-izlanishdan, tunlar uyg'oq o'tganidan, yozib chizganidan, o'qiganidan, o'rganganidan, charchab asta chiroq so'ndirganidan hosil bo'ldi.



Shoira sherlarining el aro mashhurligi tasodifiy emas. U bolaligidan olamga hayrat ko'zi bilan qarovchi, uning boshqalar ko'rolmaydigan jihatlarini ilg'ovchi qizaloq ekanligi bilan ajralib turardi. Buning ustiga, oilasidagi muhit ham yosh Zulfiyada badiiy ijodga ishtiyoqni alangalatardi. Shoira bolaligini shunday eslaydi: “Otamni... Isroil degrez der edilar. Otam zahmatkash temirchi edi. Otamning hamma vaqt olovga yo'ldosh kasbidan faqat zavq ko'rar edim. Otamday qudratli odam yo'q edi men uchun. Temirlar otam qo'lida chaqmoqlar taratishiga boqib, hayratda qolar edim. Uning qo'llari cho'g'ga aylangan temir parchasini istagan shaklga solib, inson uchun kerakli narsaga aylantirishga qodir edi. Men hali-hanuz otamday bolishni orzu qilaman, ammo na iloj, inson qalbiga kira bilish temirga ishlov berishdan mashaqqatliroq, yurakni chaqmoq kabi alanga oldirish har kimga ham muyassar bo'lavermas ekan...”

Mening onam o'zining ta'bincha, “usti butun – ichi tutun” ayollardan edi. U hamma vaqt kamgap, xayolchan edi, lekin fikrlari, o'ylari mudroq emasligini, unga mutelik, zaiflik yot ekanligini bilar edim. Ruhidagi ma'yuslik, ovozidagi hazinlik faqat uning xarakteriga xos bir sifatgina edi, xolos.

Onamning qancha-qancha qo'shiq va afsonalarni, doston va er-taklarni bilisjuga aqlim bovar qilmasdi. Bu sehri afsona va ertaklar bizga benihoya huzur bag'ishlar, o'ziga rom qilib olar, har safar yangi jilva kasb etardi. Aminmanki, mo'jizalar yaratishga qodir, jahonni ko'zga keng ochuvchi, insonni go'zallik sari yetaklovchi so'zga shaydolik hissini mening qalbimda ostonaga hatlab ko'chaga chiqmagan oddiy ayol – onam uyg'otgan...”

Zulfiya she'riyati ana shunday pokiza buloqlardan suv ichgan ijoddir. Ayni shu sababdan uning tinchlik haqidagi, inson ruhiyatini g'ajib tashlay oladigan hijron to'g'risidagi, tabiatning ajib bir holati borasidagi she'rlari hech kimni befarq qoldirmaydi. Shu bois shoiraning barcha ayollarga, barcha onaiarga, barcha ma'shuqalarga xos, tushunarli, anglanarli bo'lgan she'riyati aslo eskirmaydi. Uning asarlarida halol inson tuyg'ularining porloq yulduzi charaqlab turadi.

Xalq orasida “Oydinda”, “Sensiz”, “Yurak”, “Falak”, “Bahor keldi seni so'roqlab”, “O'g'irlamang qalamim bir kun”, “Bo'm-bo'sh qolibdi bir varaq qog'oz” kabi she'rlari, “O'g'lim, sira bo'lmaydi urush”, “Mushoira” kabi she'rlari mashhur. “Uni Farhod der edilar”, “Quyoshli qalam”, “Xotiram siniqlari” kabi lirik va liro-epik dostonlar muallifi. 1935 yilda shoir Hamid Olimjon bilan turmush qurgan va uning bevaqt vofotidan so'ng ko'plab mahzun she'rlar yaratgan. Pushkin, Lermontov, Nekrasov, L. Ukrainka, V. Inber va boshqa ko'plab shoirlarning asarlaridan namunalarni o'zbek tiliga tarjima qilgan. Zulfiya she'riyati tabiatga hamda uning ajralmas qismi va yuqori cho'qqisi bo'lmish odamzotga nisbatan hayajonli sevgi bilan burkangan. Uning she'rlarida tabiat och ranglarda, yorqin bo'yoq va timsollarda gavdalanadi.

Zulfiyaning olijanoblik, jasorat, haqqoniy xalq g'ururi, tabiat va insonga nisbatan samimiy tuyg'ular va hurmat, boy ranglar va kutilmagan yangi timsollar bilan

bajarilgan lirikasi, kitobxon qalbini larzaga keltiradi, insoniyatning kelajakka boʻlgan ishonchini mustahkamlaydi. Masalan, ulugʻ vatan urushi jahonga xavf solganda, el boshiga ogʻir ayriliqlar, hijronlar tushganida ham Zulfiyaxonim ovozi tinib qolgani yoʻq, balki yangi jarang, oʻktamlilik zinalariga koʻtarila oldi. Bu ogʻir yillardagi umumsheʼriyat oqimida Zulfiyaxonim ovozi yordan judo yosh kelin, oʻgʻildan judo onaizor dilining iztiroblari, gʻalabaga umidvor va ishonchi bor ona timsolining ifodasi boʻldi. Bu ogʻir yillardagi Zulfiyaxonim sheʼrlari jangchi yor va jangchi yorga vafodorlik sadolari boʻldi:

“Tushda ham, oʻngda ham izlayman seni,
Sen yovni yoʻq etib, omon qaytguncha”.

Kabi figʻonli, dardli, lekin aniqlik yarqirab turgan satrlar oʻsha yillar hayqirigʻi-da! Ona hayqirigʻi, yor hayqirigʻi, davr hayqirigʻi, shu bilan birga bardamlilik qoʻshigʻI, sobit va sadoqat qoʻshigʻI, bir soʻz bilan aytsa vafodorlik qoʻshigʻi. Nechogʻliq soda-yu, nechogʻliq teran va esda qolgulik! Bu ogʻir yillarda Zulfiyaxonimning oʻz boshiga ham ogʻir judolik tushdi. Oʻsal bir tasodif qurboni boʻlib, uning umr yoʻldoshi va murabbiysi, doʻsti va suyuksisi Hamid Olimjon olamdan oʻtdi. Hamma qalam ahli uchun, oʻzbek xalqi uchun, ogʻir bu ayriliq Zulfiyaxonim uchun nihoyatda ogʻir boʻlishi tabiiy axir! Olovli ishq, odamiylik, sidqidil doʻstlik va toshqin mehr oʻz avj pardalarida uzulib qolishi fojea ustiga fojea boʻlgan edi-da. Zulfiyaxonimning dunyoda eng yaqin kishisini, yulduzi yulduziga toʻgʻri kelgan zabardast shoirini unitishi mumkin emas edi-da. Shuning uchun ham Zulfiyaxonimning koʻpchilik sheʼrlarida suyuksisi Hamid Olimjonga bagʻishlab bitilgan tarzda namoyon boʻlardi. Masalan, Zulfiyaxonimning “Sensiz” sheʼridan bir parcha keltirib oʻtsak:

Mana bir umrni yashadim sensiz,
Qaytmas shodliklarning qaytishin kutib,
Tobuting boshida choʻkkanimda tiz,
Farzandlar koʻtarda qoʻlimdan tutib.

Shoiraning Ushbu atigi bir parcha sheʼrini oʻqib turib ham uni eng yaqin doʻsti, sirdoshi, jufti halolini umur soʻqmoqlarida qanchalik kerak ekanligini va uni qanchalik sogʻinib oʻrtanayotgan ekanligini bilsak boʻladi. Hamid Olimjon olovli va kutilmagan bir fojia tufayli yonib ketdi-yu, Zulfiyaxonim ham oʻsha otashda barobar yondi mening nazarimda. Farzandlarini otasi yoʻlida voyaga yetkazish, sheʼrni Hamidona voyaga yetkazish oʻngʻaymidi? Hanuz yonmoqda... Oʻsha ishq, oʻsha suq, oʻsha vafo – Zulfiyaxonim sheʼriyatining oʻzak motivlaridan boʻlib qoldi.



Zulfiya Hamid Olimjonning “Semurgʻ”, “Zaynab va Omon” dostonlari asosida pyesa va opera liberettosini ham yaratgan.

Shoira adabiy-ijtimoiy faoliyati uchun koʻpgina davlat mukofotlari bilan taqdirlangan. U “Oʻylar”, “Shalola” kabi sheʼriy toʻplamlari uchun Respublika Davlat mukofotiga sazovor boʻlgan (1970).

U oʻttizdan ziyod sheʼriy va nasriy kitoblar muallifi. Badiiy ijod sohasidagi xizmatlari uchun Davlat mukofoti, 1968 yil Javoharlarl Neru nomidagi xalqaro mukofot bilan taqdirlandi. Tinchlik va doʻstlikni tarannum etuvchi asarlari hamda taraqqiyparvar Osiyo va Afrika yozuvchilari harakatidagi faol ishtiroki uchun esa xalqaro “Nilufar” mukofotiga sazovor boʻldi (1970).

Shoira Hindiston, Yugoslaviya, Shri Lanka, Misr, Birma, Avstriya kabi mamlakatlarda boʻldi. U 1956 yilda Osiyo va Afrika yozuvchilarining Dehlida oʻtkazilgan birinchi konferensiyasida qatnashib, mashhur “Mushoira” (1958) asarini yaratdi.

Zulfiyaning “Men ish qizi” nomli birinchi sheʼri 1931 yil 17 iyulda “Ishchi” gazetasida bosilib chiqdi. “Hayot varaqlari” nomli ilk toʻplami oʻn yetti yoshida nashr etildi (1932).

Zulfiyaxonim hayoti davomida yozgan sheʼrlar va dostonlari quyidagilardir:

“Iqror”
 “Bahor keldi, seni soʻroqlab”
 “Ona”

“Hasad”
 “Zaynab va Omon”
 “Alatau qoʻshigʻi tomon”

Do ‘stlarimga”

“Hayot sahifalari” (1932)

Yulduzli alla”

Oydin tun”

“Lolalar”

“Orzu”

“Nastarin”

“Noma ‘lum sovg ‘a”

“Bu yerda men tug ‘ilganman”

Zulfiyaning o‘n beshga yaqin majmualari rus tilida chop etilgan. Uning asarlari ingliz, nemis, hind, bolgar, xitoy, koreys, arab, fors, tojik, arman, qirg‘iz, tatar, turkman, boshqird, ozarbayjon va boshqa tillarga tarjima qilingan. Shoir N. Nekrasov, M. Lermontov, Vera Inber, Lesya Ukrainka, Edi Ognetsvet, Marvarid Dilboziy, Amrita Pritam asarlarini o‘zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan.

Mustaqillik yillarida ibratli hayot kechirgan, keng ijtimoiy faoliyat olib borgan shoir Zulfiya betakror iste’dodi, Vatanga muhabbati, olijanob insoniy fazilatlari, xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirishdagi xizmatlari uchun yuksak hurmat va e’zozga sazovor bo‘ldi. O‘zbekiston hukumati atoqli shoira Zulfiyaning madaniyatimiz taraqqiyotidagi katta xizmatlarini e’tiborga olib 1999 yili Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta’sis etdi.

Ardoqli shoir tavalludining 100 yilligi esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 31 oktyabrdagi qarori bilan (2015) keng ko‘lamda nishonlandi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam Zulfiyaxonim o‘zbek she’riyatida o‘ziga xos o‘ringa ega shoir bo‘lishi bilan birga inson sifatida ham shu xalqning barcha olijanob xislatlariga ega ayol bo‘lgan. Bugun shu maqolani yozish va Zulfiyaxonimni ijodiga chuqurroq nazar solish orqali yana bir karra amin bo‘ldimki, o‘zbek adabiyoti XX asrda har qancha ziddiyatli, mashaqqatli va murakkab yo‘lni bosib o‘tgan bo‘lmasin, unda bir qator tom ma’nodagi ijodkorlar etishib chiqqan va ularni ichidagi porloq yuzlulardan biri bu Zulfiyaxonim bo‘lgan. Bugungi istiqbol kunlarida ularning ijodlari yangi qirralari bilan namoyon bo‘lmoqda. Zulfiyaxonimning hayoti va ijodi barcha xotin-qizlar uchun ibrat. Negaki, uning hayotidagi mehnatsevarligi, doimo olg‘a intilishi, sevgi bobida sadoqatli yor ekanligi, badiiy ijod borasida tinimsiz izlanuvchanligi hamda hayot qiyinchiliklarida esankiramasligi, erishilgan yutuqlar oldida o‘zini yo‘qotmasligi har qanday qiz yoki ayol qalbida havas uyg‘otadi.



Jizzax viloyatining Jizzax shahridagi “Zulfiya va Hamid Olimjon” haykali

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “O‘zbek adiblari” (S. Mirvaliyev, R. Shokirova. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti 2016) kitobidan.
2. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at, nashriyoti “Zulfiya” Toshkent-1974.